

PAPER

TIL IMPERIALIZMI VA G'ARBLASHUV: O'ZBEKISTONDAGI INGLIZ TILI DARSLIKLARIGA DEKOLONIAL NAZAR

Abdullajon Ne'matov Botirjon o'g'li^{1,*}

¹Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

*nematov@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola O'zbekiston davlat maktablarida foydalanilayotgan ingliz tili darsliklarining mazmunini dekolonial yondashuv asosida tahlil qiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, darslikda g'arb madaniyatining ustuvorligi kuzatiladi, mahalliy madaniyat esa chetda qolgan. Madaniyatlararo kompetensiya va til siyosatidagi tenglik yetarlicha aks etmagan. Teoretik asos sifatida dekolonial pedagogika, lingvistik imperializm va yashirin o'quv dasturi nazariyalari qo'llanilgan. Maqolada shuningdek, intermadaniy yondashuvni kuchaytirish, o'qituvchi agentligini faollashtirish, va mahalliy madaniy tajribalarni darslikka integratsiyalash kabi amaliy takliflar ilgari suriladi. Xulosa qismida ingliz tili ta'limini madaniy jihatdan inklyuziv va tenglikka asoslangan yo'nalishda tashkil etish zarurligi asoslanadi.

Key words: dekolonial yondashuv; ingliz tili darsliklari; lingvistik imperializm; intermadaniy kompetensiya; mahalliy madaniyat; yashirin o'quv dasturi; inklyuziv ta'lim.

Kirish

So'nggi yillarda ta'lim tizimini dekolonizatsiya qilish g'oyasi global miqyosda dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Dekolonizatsiya — bu nafaqat mustamlaka o'tmishidan xalos bo'lish, balki bilimlar, qadriyatlar va o'quv materiallarida g'arb markazchiligini tanqid qayta ko'rib chiqish demakdir. Andreotti va boshqalar (2015) ta'kidlaganidek, dekolonial yondashuv "g'arb paradigmalari ustuvorligini savol ostiga qo'yadi va boshqa bilim shakllarini ham tan olishni targ'ib qiladi."

Til o'rgatishda, xususan ingliz tili chet tili sifatida o'qitilayotgan joylarda, dekolonizatsiya madaniy vakillik, tenglik va til siyosatining adolatli yondashuvini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Kumaravadivelu (2012) yozganidek, "til o'qitishdagi dekolonizatsiya bu — o'quvchi va jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan, lokal kontekstlarni inobatga oluvchi yondashuvni ishlab chiqishdir." Shu sababli, ingliz tili darsliklarini tahlil qilishda ularning nafaqat lingvistik, balki madaniy mazmuni ham diqqat bilan ko'rib chiqilishi lozim.

Mazkur maqolada tahlil qilinadigan darslik O'zbekistonning

umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ingliz tili kurs kitobidir. Ushbu darslik kitobning so'zboshi qismida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda AQSh xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) hamkorligida ishlab chiqilgan bo'lib, "O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish dasturi" doirasida nashr etilgan. Cambridge University Press nashriyoti tomonidan chop etilgan bu kurs kitobi 1-sinf dan 11-sinf gacha bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan o'n bir qismli to'plamning bir bo'lagi bo'lib, so'nggi ikki yildan beri mamlakat bo'ylab barcha davlat maktablarida foydalanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yilda tasdiqlangan Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, ingliz tilini o'rganishning bosh maqsadi — xorijiy til doirasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bo'lib, bu o'quvchilarga kundalik, ilmiy va professional sohalarida, ko'p madaniyatli dunyoda samarali faoliyat yuritish imkonini beradi.

Tahlil qilinayotgan kurs kitobi Farg'ona viloyatining qishloq hududida joylashgan davlat maktabida ingliz tili darslari jarayonida amalda qo'llanilgan. Ushbu kontekstda, darslikning ayrim jihatlari dekolonizatsiya yondashuviga zid ekani kuzatiladi — unda in-

gliz tilida so'zlashuvchi madaniyatning ustuvorligi seziladi, intermadaniy yondashuv esa yetarli darajada aks ettirilmagan.

Maqola doirasida darslik dekolonizatsiya nuqtai nazaridan konseptual jihatdan tahlil qilinadi, mavjud muammolar uchun takliflar ilgari suriladi va yakuniy qismda o'qituvchilik amaliyotiga tayanigan holda o'z-o'zini tahlil qilishga o'rin beriladi.

Shu bilan birga, ingliz tili ta'limining O'zbekistondagi hozirgi shakllanishi ham muhim omillardan biridir. Mustaqillikdan keyin xorijiy tillar, ayniqsa ingliz tilini o'rgatishga alohida e'tibor berildi, ammo dastlabki bosqichlarda o'quv materiallari asosan tarjima yoki xorijdan to'g'ri olib kiritilgan darsliklarga tayanilgan. Bugungi kunda esa mahalliy ehtiyoj va kontekstga moslashtirilgan, lekin xalqaro hamkorlikda yaratilgan darsliklar keng qo'llanmoqda. Shu sababli, mavjud darsliklar tarkibini dekolonial yondashuv asosida baholash, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili

Dekolonizatsiya tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni

Bugungi kunda "dekolonizatsiya" atamasi ta'lim sohasida tobora ko'proq eshitilmoqda. Dastlab bu tushuncha asosan siyosiy kontekstdagi mustamlakachilikdan xalos bo'lishni anglatgan bo'lsa, endilikda u ko'proq madaniy va bilim sohalarida ham qo'llanmoqda. Ya'ni, dekolonizatsiya — bu faqat tarixiy bosqinchilikdan chiqib ketish emas, balki ta'limda faqat G'arb nuqtai nazaridan tuzilgan bilim va qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish, boshqa madaniy va lokal bilimlarni ham tan olish demakdir. Smith (1999) bu jarayonni "bilimni mustamlaka ta'siridan ozod qilish" deb ta'riflaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda ham bu tushuncha juda muhim bo'lib chiqadi. Til darsliklarida ko'pincha ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyati ustuvor o'rin egallaydi. Pennycook (1998) buni "til orqali madaniy kuchni mustahkamlash" deb baholaydi. Bu holat esa o'quvchilarda o'z milliy yoki mahalliy madaniyatini ikkinchi darajali deb qabul qilish xavfini tug'diradi.

Andreotti (2011) ta'limdagi dekolonizatsiya turlicha shakllarda bo'lishi mumkinligini aytadi. Uning fikricha, ba'zi yondashuvlar mavjud tizimni shunchaki "bezatadi" (bu "yumshoq" yondashuv), lekin asosiy struktural muammolar o'zgarishsiz qoladi. Boshqalari esa yanada chuqurroq o'zgarishni, ya'ni kuch va bilim iyerarxiyalarini butunlay qayta ko'rib chiqishni taklif qiladi.

Xuddi shunday, Kumaravadivelu (2012) ham ingliz tilini o'qitishda yagona "to'g'ri metod" yo'qligini, har bir jamiyat, har bir sinf, har bir o'quvchi o'z kontekstiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun u o'qituvchini "metodlar ijrochisi" sifatida emas, balki faol agent, ya'ni o'z o'quvchilari va maktab muhitiga mos o'qitish yondashuvlarini ishlab chiqadigan mutaxassis sifatida ko'radi.

Dekolonial yondashuv kontekstida til o'qitish sohasidagi eng muhim tushunchalardan biri bu — lingvistik imperializmdir. Phillipson (1992) ta'riflaganidek, bu atama ingliz tilining boshqa tillar hisobiga global miqyosda ustuvor qo'yilishi va bu orqali madaniy, siyosiy va iqtisodiy kuchlarning mustahkamlanishini anglatadi. Ingliz tilini "zaruriy" yoki "universal" aloqa vositasi sifatida taqdim etish — o'z-o'zidan boshqa tillar va madaniyatlarni ikkinchi darajaga tushiradi. Kramersch (2014) ta'kidlaganidek, til nafaqat aloqa, balki ideologik vosita hamdir: u orqali normalar, qadriyatlar va ierarxiyalar uzatiladi. O'zbekistondagi ingliz tili darsliklari mazmuni ham, agar ular G'arb markazchiligi asosida tuzilgan bo'lsa, o'quvchilarda ingliz tili va madaniyatini "ideal" sifatida ko'rishga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, mahalliy tillarning ijtimoiy maqomini pasaytirishi va o'z o'quvchilarda mahalliy madaniy o'zlik (local cultural identity)ni qadrlash hissini zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli, darsliklarni baholashda faqat til shakli emas, balki tilni o'rgatish ortidagi ideologiyalar ham tan-

qidiy tahlil qilinishi lozim.

Dekolonial yondashuv til ta'limining asosiy maqsadlaridan biri sifatida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Biroq bu nafaqat boshqa madaniyatni tanishtirish, balki o'quvchining o'z madaniyatini tushunishi va qadrlashiga ham zamin yaratishi kerak. Byram (1997) madaniyatlararo til o'qitish modelida "interkultural mediator" konsepsiyasini ilgari surib, o'quvchini turli madaniyatlar o'rtasida vositachi sifatida tayyorlashni tavsiya etadi. Bu yondashuv o'quvchiga faqat "to'g'ri" yoki "g'arbona" madaniyatni o'rgatish o'rniga, turfa qarashlarni muhokama qilish, stereotiplarga tanqidiy yondashish va boshqalarning nuqtai nazarini tushunishga intilish imkonini beradi. Afsuski, ko'plab ingliz tili darsliklarida bu yondashuv yuzaki yoki ramziy darajada mavjud bo'lib, real madaniyatlararo dialogga yo'l ochmaydi. Dekolonial yondashuv aynan mana shu formal yondashuvdan chiqib, til o'rganish jarayonini ijtimoiy-madaniy anglash va ishtirok platformasiga aylantirishni ko'zlaydi. Shu sababli, darsliklarda nafaqat madaniy kontent, balki uning qanday tarzda talqin qilinyotgani ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Alqissa, dekolonial ta'lim yondashuvi o'quv jarayonida o'quvchi shaxsiyati va ijtimoiy kontekstini markazga qo'yishni taqozo etadi. Aslida, bu yondashuv Paolo Freire (2000) tomonidan ilgari surilgan tanqidiy pedagogika tamoyillariga hamohang bo'lib, ta'limni faqat bilim uzatish emas, balki o'quvchini ijtimoiy adolat sari yo'naltirish vositasi sifatida ko'radi. Shunday ekan, ingliz tili darsliklari ham o'quvchilarga tilni o'rganishdan tashqari, o'z madaniyati, qadriyatlarini va tiliga hurmat bilan qarash imkonini yaratishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda, ayniqsa chet tilini o'qitishda dekolonial yondashuv faqat madaniyatlar xilma-xilligini inobatga olish emas, balki o'quvchilarni o'zigi, til va madaniyatini qadrlashga undash vositasidir. Ushbu maqolada ham darslik shu yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Konseptual asos

Ingliz tili darsliklari qanday tuzilishi kerak?

Til o'rgatish bo'yicha mutaxassislar — Macalister va Nation (2010) fikriga ko'ra, til kurslarining mazmuni til birliklari, g'oyalar, ko'nikmalar va strategiyalardan iborat bo'lib, bular kursning umumiy maqsadlariga xizmat qilishi kerak. Long va Crookes (1993) ta'kidlaydilar, o'quv dasturini ishlab chiqish avvalo qanday birlik asosida (ya'ni o'sish yoki rivojlanish birligi) tashkil etilishini aniqlashdan boshlanishi kerak.

Macalister va Nation (2020) ikki turdagi rivojlanish birliklarini tavsiflaydi: birinchisi — ketma-ketlik asosida tuzilgan, ya'ni topshiriqlarda tez-tez uchraydigan lug'at, grammatik birliklar va asosiy til ko'nikmalari; ikkinchisi esa — muayyan tartibni talab qilmaydigan, lekin mazmun jihatidan muhim bo'lgan bilim sohalarini, masalan, g'oyalar, nutqiy muloqot, til ishlatish kontekstlarini o'z ichiga oladi.

Til o'rgatishda yuqori tezlikda uchraydigan lug'at birliklarini tegishli kontekstda taklif qilish juda muhim hisoblanadi. O'quv dasturlari shunday tuzilishi kerakki, o'quvchilar so'z va iboralarni real va mazmunli vaziyatlarda o'zlashtira olishsin. Macalister va Nation (2020) ta'kidlaganidek, kursda asosiy tarkibiy birliklar — mavzular, g'oyalar yoki topshiriqlar bo'lishi mumkin, ammo lug'at, grammatika va nutqiy birliklarning muntazam takrorlanib borishini ham kuzatib borish zarur. Shu maqolada tahlil qilinadigan darslikda ham aynan mavzular, fikrlar, grammatik tuzilmalar va lug'at birgalikda tanlangan.

Shuningdek, Macalister va Nation o'z ishlarida kontentga asoslangan o'qitish (Content-Based Instruction — CBI) yondashuvini rivojlantirgan. Richards va Rodgers (2014) bu yondashuvni ikkinchi tilni o'qitishda darslar asosiy mazmun atrofida qurilishi deb izohlaydi. Ya'ni, o'quvchilar tilni o'z-o'zicha emas, balki aniq bir mavzu asosida — real hayotiy kontekstda o'rganishadi. Bu yondashuv kommunikativ til o'qitish tamoyillariga mos keladi va

tilni faqat grammatik tizim emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rganishga yordam beradi. Macalister va Nation (2019) fikricha, bunday yondashuv o'quvchilarning til ko'nikmalarini va mazmuniy bilimini bir vaqtning o'zida samarali rivojlantiradi. Ushbu maqolada tahlil qilinayotgan darslikda ham CBI yondashuvi alohida o'rin egallaydi.

Darsliklar va o'quv dasturlarining jamiyatga ta'siri

Garcia (2019) o'z tadqiqotlarida tarix davomida til qanday qilib hukmronlik, istilo va madaniy ustunlik vositasiga aylanganini ko'rsatadi. Kramersch (2019) esa bugungi kunda chet tilini o'qitish global va milliy ijtimoiy tartiblar kesishgan nuqtada joylashganini ta'kidlaydi. Shu sababli, so'nggi yillarda chet tili ta'limini dekolonizatsiya qilish, ya'ni turli madaniyatlarni o'rgatishga kengroq e'tibor qaratish, mahalliy tillarni qadrlash va o'quvchilar ongida madaniy xilma-xillikni shakllantirish borasida turli tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Ingliz tili darsliklari nafaqat tilni, balki shu til vositasida madaniyat, qadriyat va dunyoqarashni ham o'rgatadi. Soto-Molina va Méndez (2020) ingliz tili darsliklarini "neytral bo'lmagan bilim manbai" sifatida baholaydi. Ya'ni, ularning mazmuni qanday g'oyalar tanlangani, qaysi mavzular ko'proq yoritilgani, rasmlar va til kodekslari orqali qanday ijtimoiy normalar ilgari surilayotgani — bularning barchasi mualliflarning qarashlariga bog'liq bo'ladi va bu orqali darsliklar ma'lum ijtimoiy-madaniy pozitsiyani ifodalaydi.

Tuhiwai Smith (1999) esa "yashirin o'quv dasturi" (hidden curriculum) tushunchasini muhokama qilib, mustamlakachilik hatto zamonaviy ta'lim tizimi orqali, ongli ravishda emas, balki tuzilma orqali davom etishini ta'kidlaydi. Shu bois ingliz tili darsliklarini dekolonizatsiya qilish — bu faqat madaniy xilma-xillikni ta'minlash emas, balki mavjud darsliklardagi noto'g'ri qarashlar, stereotiplar va g'arb markazchiligini tanqidiy tahlil qilishdir.

Amaliy tomondan, bu jarayonga turli madaniyat vakillaridan iborat jamoalar bilan hamkorlikda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, tanqidiy pedagogikani joriy qilish, va o'quvchilarga hukmron narrativlarni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali erishish mumkin. Masalan, Afrika, Osiyo yoki mahalliy mualliflarning matnlarini darslikka qo'shish, yoki turli tillar va madaniy amaliyotlarni aks ettiruvchi multimedia resurslardan foydalanish — o'quvchilarning madaniy idrokini kengaytiradi.

Metodologiya

Ushbu maqola sifat jihatdan tanqidiy-tahliliy metodga asoslanadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston davlat maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ingliz tili darsligi tanlab olindi. Tahlil dekolonial nazariya, tanqidiy pedagogika va lingvistik imperializm konsepsiyalari asosida olib borildi. Darslikdagi mavzular, madaniy mazmun, vizual materiallar va topshiriqlar kontekstual jihatdan baholandi. Shuningdek, darslikda madaniyatlararo kompetensiyaning qay darajada aks etgani, lokal madaniyatning mavjudligi yoki chetda qolgani aniqlashga qaratilgan. Metodologik yondashuvda Andreotti (2011), Pennycook (1998), Kramersch (1998) va Tuhiwai Smith (1999) kabi tadqiqotchilarning nazariy ishlanmalaridan foydalanildi. Tahlil muallifning amaliy tajribasi — Farg'ona viloyatidagi davlat maktabida ingliz tili o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritgan davrda darslikni qo'llash jarayonidagi kuzatishlariga ham tayangan. Shu bois, tadqiqot individual kontekstga asoslangan bo'lsa-da, u umumiy ta'lim tizimi va darslik siyosatini baholashda foydali natijalar beradi.

Tahlil

Ushbu bo'limda tanlangan darslikning mazmuni dekolonial yondashuv asosida tahlil qilinadi. Baholash jarayonida madaniyatlararo kompetensiya va til imperializmga aloqador jihatlarga alohida

e'tibor qaratiladi.

Kuchli jihatlar

Tanlangan darslikning asosiy ustunliklaridan biri shundaki, u kontentga asoslangan o'qitish (CBI) yondashuviga tuzilgan. Darslikda ikkita asosiy g'oya — madaniyat va hayotiy ko'nikmalar mavzular sifatida tanlangan bo'lib, ular darslikdagi 20 birlik davomida navbatma-navbat almashib boradi. Dastlabki ikki bo'lim madaniyatga bag'ishlangan bo'lsa, keyingilarida hayotiy ko'nikmalar yoritiladi va bu tartib oxirigacha saqlanadi.

Macalister va Nation (2019) fikricha, darslarda mavzularni asos qilib olish til birliklarini takror-takror uchratish imkonini beradi, bu esa ularni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tanlangan darslikda ham aynan shunday yondashuv qo'llanilgan.

Darslikdagi mazmun to'rt asosiy til ko'nikmasi — gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish — bilan birga grammatika va lug'at materiallarini ham uyg'unlashtirgan. Masalan, "In Fashion" (Moda olamida) nomli darsda avval tegishli sifatsozlar bilan tanishtiriladi, keyin matn o'qish mashqi, undan so'ng esa o'tgan zamon fe'l shakllariga oid grammatik qism beriladi. Dars yakunida esa tinglash va gapirish faolliklari video material bilan boyitiladi. Bu esa o'quvchilarning tilni real kontekstda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Macalister va Nation (2019) shuni ham ta'kidlaydiki, til kurslari faqat sinf ichida emas, balki real hayotda ham foyda keltirishi kerak. Ushbu darslikda hayotiy ko'nikmalarga oid mavzular aynan shu maqsadga xizmat qiladi — o'quvchilarni kelajakdagi muhim vazifalarga tayyorlash: ish topish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, do'stlik o'rnatish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish. Masalan, "Champions", "My Way of Life", "Call the Police" va "Healthy Future" kabi bo'limlar aynan shu kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jihatlar darslikning dolzarbligini oshiradi.

Shuningdek, darslikdagi ayrim topshiriqlar muloqotga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, "Call the Police" bo'limidagi rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlarni muhokama qilishga asoslangan mashqlar o'quvchilarda shaxsiy xavfsizlik, huquqiy ong va jamiyatdagi faol ishtirokchilik kabi tushunchalarni shakllantiradi. Bu kabi faoliyatlar til o'rganishning faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy jihatlarini ham yoritishga xizmat qiladi. Bu esa CBI yondashuvining kengroq ta'limiy maqsadlari bilan uyg'unlashadi.

Bundan tashqari, ba'zi mashqlar o'quvchilarda ijtimoiy mavzular bo'yicha fikrlash va bahslashish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Masalan, "My way of life" bo'limidagi topshiriqlarda o'quvchilar sog'lom turmush tarzi, individual qaror qabul qilish, vaqtni boshqarish kabi mavzularda fikr bildiradi. Bu kabi faoliyatlar til o'rgatish bilan bir qatorda o'quvchilarning tanqidiy tafakkur va kommunikativ kompetensiyasini ham mustahkamlaydi.

Zaif jihatlar

Biroq darslikning ayrim jihatlari dekolonial nuqtai nazardan qaralganda tanqidiy baholashni talab qiladi. Xususan, darslikda madaniyat mavzusi ko'tarilgan bo'lsa-da, u ko'proq ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan va madaniyatlararo qarash yetarli darajada aks etmaydi.

Masalan, "In Fashion" bo'limida ingliz xalqining an'anaviy kiyimlari tasvirlanadi, 10-bo'limda ingliz taomlari haqida matn berilgan, 17-bo'limda esa g'arb va amerikalik mashhurlar haqida so'z boradi. Bu kabi materiallar darslikning ko'p qismida ingliz madaniyatining ustunligini ko'rsatadi, mahalliy yoki boshqa xalqlarning madaniyati esa e'tiborsiz qolgan. Adaskou va boshqalar (1990) fikricha, til o'rgatish nafaqat maqsadli madaniyatni tan-

ishtirishi, balki o'quvchining o'z madaniyatini qadrlash va uni saqlab qolishga ham xizmat qilishi kerak.

Pennycook (2007) va Tollefson (2000) fikricha, bunday yondashuvlar aslida neo-kolonial amaliyotlar bo'lib, ular orqasida "bitta til – bitta madaniyat" g'oyasi turadi. Bu orqali o'quvchilarga g'arbona hayot tarzi, ijtimoiy normalar va qadriyatlar qanday bo'lishi kerakligi ko'rsatib beriladi. Adaskou va boshqalari eng katta xavf aynan madaniyatning ijtimoiy jihatlarida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, yashirin o'quv dasturi (hidden curriculum) tushunchasini ham unutmashlik kerak. Kambutu va boshqalar (2020) va Apple (2019) fikricha, ta'lim tizimi orqali ayrim mafkuralar, ijtimoiy ierarxiyalar va qadriyatlar bevosita emas, balki bilinmas tarzda o'rgatiladi. Apple bu holatni timsol va bilimlar tashkiloti orqali jamiyatda qanday nazorat mexanizmlari ishlashini ko'rsatadigan vosita sifatida tushuntiradi. Ya'ni, kimning ovozi eshitiladi, kimning tajribasi markazda bo'ladi — bular o'quv materiallari orqali shakllanadi.

Shu sababli, darslikdagi madaniyatni targ'ib qilishga qaratilgan bo'limlar yaxshi niyat bilan yaratilgan bo'lsa-da, ular mahalliy (o'zbek) madaniyatga e'tibor bermagan. Natijada, bunday monomadaniy yondashuv O'zbekistonning ko'p millatli va ko'p madaniyatli jamiyatga oid siyosiy yo'nalishiga to'g'ri kelmaydi.

Dekolonial yondashuvga ko'ra, bunday darsliklar turli madaniyat va tillarni aks ettirishi, shuningdek, o'quvchilarni o'z madaniyatini tan olishga va tanqidiy fikrlashga o'rgatishi kerak. Paulo Freire (2000) aytganidek, ta'lim o'quvchini o'z hayoti va atrofidagi jamiyatni tanqidiy anglashga undashi, g'arb madaniyatining ustuvorligi va uning nozik ta'sirlariga qarshi mustahkam fikr shakllantirishi zarur.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, darslikda ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar madaniyatining ustuvorligi nafaqat matnlarda, balki vizual materiallarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Illyustratsiyalarning ko'pchiligi oq tanli, g'arbona kiyingan, zamonaviy hayot tarziga ega obrazlarni aks ettiradi. Bunday tasviriy dominantlik ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarda "standart" yoki "ideal" ko'rinish va xatti-harakat aynan shu madaniyatga tegishli degan noto'g'ri tasavvur shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, mahalliy madaniy o'zlikka nisbatan ikkilamchi munosabat paydo qilish xavfini tug'diradi.

Natija va takliflar

Til o'qitish bo'yicha o'quv dasturini dekolonizatsiya qilish — mu-rakkab, ammo zarur jarayon bo'lib, u ayrim tillarning boshqa tillardan ustun qo'yilishiga olib kelgan kuch munosabatlarini tanqidiy tahlil qilishni talab qiladi. Phipps (2021) ta'kidlaganidek, til o'qitishdagi dekolonial yondashuv uch bosqichli "fenomenologik" ikki karra uzilish"ni o'z ichiga oladi: birinchidan, dastur doirasida qanday tillar o'rgatilyotganini aniqlash; ikkinchidan, nima uchun aynan shu tillar markazga chiqqanini tanqidiy tahlil qilish; va uchinchidan, tarixiy kolonial amaliyotlar natijasida unutilgan yoki chetga surilgan tillarni e'tiborga olib, ularning ta'limdagi o'rnini qayta tiklash.

Bugungi vaziyatda tanlangan darslik butun mamlakat maktablarida amalda bo'lgani uchun, bu jarayonda o'qituvchi agentligi, ya'ni o'qituvchining tashabbuskorlik va tanqidiy fikrlash roli juda muhim. Cortazzi va Jin (1999) ta'kidlaganidek, na o'qituvchilar, na o'quvchilar, va na darsliklar madaniyatdan butkul mustasno yoki mutlaqo betaraf emas. Darsliklar muayyan bilim va qadriyatlarini uzatadi, va o'qituvchi-tinglovchi bu qadriyatlar bilan muomala qilishda shunchaki qabul qiluvchi emas, balki faol tanqidiy fikrlovchi bo'lishi kerak. Agar madaniy komponentlar muhokama qilinmasa, bu kolonializm jarayonlarining davom etishiga sabab bo'lishi mumkin (Soto-Molina Méndez, 2020).

Muhokoma

Dekolonial yondashuvga asoslangan o'zgarish takliflaridan biri — faqat bitta darslik bilan cheklanmaslik, balki turli madaniyatlarni aks ettiruvchi, tenglikni ta'minlovchi qo'shimcha materiallardan foydalanishdir. Bu materiallar ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar madaniyatiga hurmatni saqlagan holda, mahalliy va boshqa madaniyatlarni ham dars jarayoniga jalb qilishi lozim. Tuihui Smith (2012) o'quv materiallarida mahalliy bilimlar va chetda qolgan ovozlarni markazga qo'yishni taklif qiladi. Bu esa dastur doirasida turli madaniy tajribalarni tan olish va ularni qadrlash zarurligini anglatadi.

Shuningdek, Kramersch (1998) ingliz tilini global lingua franca sifatida tan olgan holda, uni o'rganishda mahalliy kontekst va tillarning o'rnini inkor qilmaslik kerakligini ta'kidlaydi. U tilni nafaqat muloqot vositasi, balki shaxsiyat, madaniyat va hokimiyat ifodasi sifatida ham ko'radi. Shuning uchun o'qituvchilar Kramerschning ishlarini asos qilib olib, o'quvchilarga til qanday qilib ijtimoiy ierarxiyalarni yaratishi va ularni qanday tahlil qilish mumkinligini tushuntirishda foydalanishlari mumkin.

Darslik mazmunini boyitish yo'llari

Birinchi taklif — madaniy xilma-xillikni aks ettiruvchi ovozlarni va qarashlarni darslikka kiritishdir. Bu turli adabiyotlar, filmlar va boshqa madaniy artefaktlarni darslarga qo'shish orqali amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilar o'zlarining tillari, lahjalari va madaniy tajribalari bilan bo'lishishga rag'batlantirilsa, bu ta'lim muhitini yanada inkluziv va adolatli qiladi.

Ikkinchi taklif — darslik va o'qitish amaliyotlaridagi kuch munosabatlarini tanqidiy ko'rib chiqishdir. O'qituvchilar quyidagi savollarni o'zlariga va o'quvchilarga berishlari mumkin:

Qaysi til o'rgatilmoqda?

Qaysi madaniyat ifodalanmoqda?

Qaysi bilimlar ustuvor deb topilmoqda?

Bu savollar yordamida darslikdagi yashirin ierarxiyalarni aniqlash va ular ustidan fikr yuritish mumkin. Shuningdek, Kramerschning ishlaridan foydalanib, o'quvchilarda tanqidiy til ongini shakllantirish mumkin. Ya'ni, til qanday qilib kuch, nazorat va ijtimoiy normalarni barpo etadi va unga qarshi qanday harakat qilish mumkinligini anglash.

Masalan, til darslarida o'quvchilarning o'z hududiga oid madaniy namoyonalar — xalq ertaklari, urf-odatlar, san'at namunalari asosida matnlar tuzish, ularni muhokama qilish imkonini beruvchi topshiriqlar kiritilishi mumkin. Bu, bir tomondan, til o'rganishni kontekstual va hayotiy qiladi, ikkinchi tomondan esa o'quvchining shaxsiy va madaniy o'zligini qadrlashga xizmat qiladi.

O'qituvchilarning ishtiroki va ishonchlari

Ammo o'zgarishni boshlash uchun avvalo o'qituvchilarning ishonch va qarashlari bilan ishlash kerak. Garton (2008) ta'kidlaganidek, o'qituvchilar nimaga ishonishsa — o'sha tarzda dars o'tadilar. Shuning uchun har qanday o'zgarishdan oldin ularning mavjud fikrlarini o'rganish muhim. Macalister va Nation (2019) ham bu fikrni qo'llab-quvvatlab, o'zgarish kiritilayotganda o'qituvchilar ehtiyojlari tahlili (masalan, so'rovnomalarni orqali) orqali ularning fikrini aniqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilar kichik darajadagi (mikro) ishtirokchilar sifatida ko'rinsa-da, aslida ta'limdagi katta o'zgarishlar aynan ular orqali ro'y beradi. Menard-Warwick (2009) fikricha, ingliz tili o'qituvchilari o'rgatilyotgan tilga oid madaniyat obrazlarini qayta yaratish yo'llarini izlab topishlari kerak. Soto-Molina va Méndez (2020) esa intermadaniy pedagogikani taklif qilib, turli madaniyatlar to'qnashuvida muvozanat saqlay oladigan o'qituvchilar aynan o'quvchilarda madaniyatlararo

kompetensiyani shakllantirishda yetakchi bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Xulosa

Mazkur maqolada O'zbekiston maktablarida foydalanilayotgan ingliz tili darsligi mazmuni dekolonial yondashuv asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tanlangan darslik ayrim jihatlarda intermadaniy kompetensiyani shakllantirishga hissa qo'shsa-da, umumiy mazmunida g'arb madaniyatining ustuvorligi va mahalliy madaniyatlarning chetda qolishi kuzatiladi. Bu holat darslikda ingliz tilini o'rgatish bilan birga, bir til – bir madaniyat tamoyilining singdirilayotganini ko'rsatadi, bu esa dekolonial yondashuvga zid keladi.

Darslikda hayotiy ko'nikmalar va madaniyat kabi mavzularning mavjudligi, til o'rganish jarayonini real kontekstlar bilan boyitishga qaramay, mahalliy va boshqa turli madaniy tajribalarning inklyuziv tasviri yetishmaydi. Bu orqali darslik mavjud kuch munosabatlarini mustahkamlashi, va til o'rgatish jarayonida yashirin mafkuraviy ta'sirlar (hidden curriculum) orqali neokolonial tendensiyalarni davom ettirishi mumkin.

Shunday ekan, ta'lim mazmunini dekolonizatsiya qilish zarurati o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu jarayon o'quv dasturlarini turli madaniy va tilshunoslik nuqtai nazarlarini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqishni, mavjud normativ yondashuvlarni tanqidiy tahlil qilishni, va o'quv materiallarini ko'proq madaniy inklyuzivlik tamoyiliga asoslab tuzishni taqozo etadi.

Xususan, ingliz tili darsliklari tarkibida:

- g'arbga xos madaniy obrazlar bilan bir qatorda boshqa hududlardagi madaniyatlar ham aks ettirilishi;
- mahalliy kontekstlarga mos matn va faoliyatlar kiritilishi;
- turli madaniy ovozlari va tilshunoslik tajribalari jamlangan bo'lishi kerak.

Ta'lim siyosatida va amaliyotida ushbu yondashuvlarni hisobga olish orqali ingliz tilini o'qitish jarayoni yanada adolatli, madaniy jihatdan sezgir va global darajada muvozanatli bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ushbu yondashuvni amalga oshirishda faqat darslik mualliflari emas, balki ta'lim siyosatini belgilovchi muassasaddi tashkilotlar, ta'lim muassasalari rahbarlari, metodistlar va o'qituvchilar hamkorligi muhim hisoblanadi. Integratsiyalashgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan va kontekstga mos, madaniy jihatdan sezgir o'quv materiallari yaratish orqali O'zbekiston ta'limi global muvozanatni saqlagan holda o'zining milliy xususiyatlarini ham saqlab qolishi mumkin.

References

1. Adaskou, K., Britten, D., and Fahsi, B. (1990). Design decisions on the cultural content of a secondary English course for Morocco. *ELT Journal*, 44(1), 3–10. <https://doi.org/10.1093/elt/44.1.3>
2. Andreotti, V. (2011). *Actionable postcolonial theory in education*. Palgrave Macmillan.
3. Andreotti, V., Stein, S., Ahenakew, C., and Hunt, D. (2015). Mapping interpretations of decolonization in the context of higher education. *Decolonization: Indigeneity, Education and Society*, 4(1), 21–40.
4. Apple, M. W. (2019). *Ideology and curriculum* (4th ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780429498914>
5. Byram, M. (1997). Teaching and assessing intercultural communicative competence. *Multilingual Matters*.
6. Cortazzi, M., and Jin, L. (1999). Cultural mirrors: Materials and methods in the EFL classroom. In E. Hinkel (Ed.), *Culture in second language teaching and learning* (pp. 196–219). Cambridge University Press.
7. Freire, P. (2000). *Pedagogy of the oppressed* (30th anniversary ed.). Continuum.
8. Garcia, O. (2019). *Translanguaging: Language, bilingualism and education*. Palgrave Macmillan.
9. Garton, S. (2008). Investigating teacher beliefs about grammar teaching. *IATEFL Voices*, 202, 17–18.
10. Kambutu, J., Rios, F. A., and Castaneda, L. V. (2020). Hidden curriculum: An invisible barrier to educational equity. *Multicultural Perspectives*, 22(3), 128–134.
11. Kramsch, C. (1998). *Language and culture*. Oxford University Press.
12. Kramsch, C. (2011). The symbolic dimensions of the intercultural. *Language Teaching*, 44(3), 354–367. <https://doi.org/10.1017/S0261444810000431>
13. Kramsch, C. (2014). Teaching foreign languages in an era of globalization: Introduction. *The Modern Language Journal*, 98(1), 296–311.
14. Long, M., and Crookes, G. (1993). Units of analysis in syllabus design: The case for task. In G. Crookes and S. Gass (Eds.), *Tasks in a pedagogical context* (pp. 9–54). *Multilingual Matters*.
15. Macalister, J., and Nation, I. S. P. (2010). *Language curriculum design*. Routledge.
16. Macalister, J., and Nation, I. S. P. (2019). *Case studies in language curriculum design: Concepts and approaches in action around the world*. Routledge.
17. Macalister, J., and Nation, I. S. P. (2020). *Language curriculum design* (2nd ed.). Routledge.
18. Menard-Warwick, J. (2009). *Gendered identities and immigrant language learning*. *Multilingual Matters*.
19. Pennycook, A. (1998). *English and the discourses of colonialism*. Routledge.
20. Pennycook, A. (2007). *Global Englishes and transcultural flows*. Routledge.
21. Phipps, A. (2021). Decolonising multilingualism: Struggles to decreate. In P. Vinogradova and J. L. Duff (Eds.), *Translanguaging in higher education: Beyond monolingual ideologies* (pp. 47–64). *Multilingual Matters*.
22. Richards, J. C., and Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
23. Smith, L. T. (1999). *Decolonizing methodologies: Research and indigenous peoples*. Zed Books.
24. Smith, L. T. (2012). *Decolonizing methodologies: Research and indigenous peoples* (2nd ed.). Zed Books.
25. Soto-Molina, S., and Méndez, L. D. (2020). Cultural content in EFL textbooks: A critical analysis from a decolonial perspective. *GIST Education and Learning Research Journal*, 21, 77–97. <https://doi.org/10.26817/16925777.825>

26. Tollefson, J. W. (2000). Policy and ideology in the spread of English. In J. K. Hall and W. G. Eggington (Eds.), *The sociopolitics of English language teaching* (pp. 7–21). Multilingual Matters.
27. Tuhiwai Smith, L. (1999). *Decolonizing methodologies: Research and indigenous peoples*. Zed Books.